LAVANDA (LAVANDULA) O‘SIMLIGINING O’SISHI VA RIVOJLANISHI

Maqsudova Shaxrizoda Shuxratovna
Buxoro davlat texnika universiteti M17-25 magistranti

Qabul qilindi: 29.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 30.11.2025
Tasdiqlandi: 01.12.2025

Kalit so‘zlar:
lavanda, efir moyi, distillatsiya,tarkibiy moddalar ekstraksiya, aromaterapiya dorivor xususiyatlari, tarkib, linalool, linalilasetat lavanda xushboyligi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda lavanda efir moyining olinishi, ekstraksiyasi, kimyoviy tarkibi va turli sohalardagi qo‘llanilishiga doir ilmiy asoslangan ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, lavanda moyining farmatsevtika, kosmetologiya, aromaterapiya va oziq-ovqat sanoatidagi qo‘llanishi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kirish: Lavanda (lotincha *Lavandula* — Labguldoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub, xushbo'y efir moyiga boy ko'p yillik butasimon o'simlik. Lavanda (*Lavandula angustifolia)* dorivor va aromatik o‘simliklar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan navlardan biridir O’rta Dengiz sohillarida 25 dan ortiq turi uchraydi. Asosan, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Moldova, Qrim, Rossiyaning Krasnodar o‘lkasida ensiz bargli lavanda(lavanda angustifolia) turi yetishtiriladi. Lavandaning yangi to‘pgulida 1,2 — 2,3% efir moyi mavjud. Parfyumeriya, oziq-ovqat sanoati, tibbiyotda qo‘llanadi. Lavanda yorug‘sevar, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik bo‘lib 30° sovuqqa ham chidaydi. Qalamchasidan ko‘paytiriladi. Ildizi 40—50 ta uzun ipsimon ildizchalardan iborat. Tuproqqa 2 m chuqur kirib boradi. Sershox, bir tupida 400—800 ta poya hosil qiladi. Mevasi qo‘shaloq, 4 ta yong‘oqchadan iborat, rangi sariq — jigarrang. Ekilgan ko‘chatlardan 2-yildan boshlab 20—25 yilgacha hosil olinadi. Har 6—7 yilda lavandazorlar yoshartiriladi.[1]. Uning efir moyi yuqori aromatik xususiyatlari, kimyoviy barqarorligi va ko‘p tomonlama qo‘llanilishi tufayli farmatsevtika va kosmetika sanoatlarida katta ahamiyatga ega.

Lavanda moyi asosan ikki asosiy usul orqali olinadi: bug‘da distillatsiya va organik erituvchilar ekstraksiya. Distillatsiya usuli ekologik xavfsiz, arzon va sifatli mahsulot olish imkonini beradi.Ekstraksiya usuli esa yuqori darajada to‘yingan aromatik komponentlarga ega absolyut olishdasamaralidir. Asosiy faol moddalardan linalool va linalil asetat lavanda moyining 60–75% qisminitashkil etadi. So‘nggi yillarda lavanda efir moyiga bo‘lgan talabning keskin ortishi ushbu sohada qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab qilmoqda. Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida lavanda moyining tarkibi asosan linalool, linalyl asetat, geraniol va kafur moddalari bilan boyligi, ushbu

komponentlarning sifati esa ajratib olish usuliga bevosita bog‘liq ekani ta’kidlanadi.



1-rasm Lavandaning tashqi ko'rinishi

Parazitlarga qarshi ta’siri: Dunyo bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *L. angustifolia* hamda ushbu tur asosida yaratilgan navlarda stolbur kasalligi nisbatan ko‘p uchrashi aniqlangan .Shuning uchun lavanda yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklar ekinlarning fitosanitar holatini uzluksiz kuzatib borishlari kerak. J.Chuche va boshqalarning (2018) ma’lumotlariga ko‘ra dorivor mavrak *(Salvia sclarea L.)* o‘simligida ko‘payib rivojlanuvchi hasharotlarning *Hyalesthes obsoletus, Philaenus spumarius, Lepyronia coleoptrata* turlari yosh lavanda ko‘chatlarida fitoplazmani tarqatuvchi turlar ekanligi aniqlangan Lavanda vitamin va minerallarga juda boy. Lavandadan foydalanish usuli: Lavanda ichga qabul qilish va tashqi foydalanish uchun qaynatma, damlamalar tayyorlash uchun qo’llaniladi. O’simlik barglari va gullarini choylarga qo’shadi. O’tning quruq aralashmasini mato xaltachalarga solib,aromaterapiya vositasi sifatida foydalanishadi. O’simlikning o’zini alohida ishlatish ham, nisbatan murakkabroq retseplarda masalliqlardan biri sifatida foydalanish ham mumkin. Lavanda damlamasi: tayyorlash uchun 2-3 choy qoshiq quruq xomashyo kerak bo’ladi, ustidan 500 ml qaynoq suv quyib, tindiriladi. 0,5 stakandan kuniga 4 mahal qabul qilinadi.

Lavanda o’simligini yetishtirish: Lavandula *angustifolia* — qurg‘oqchilikka chidamli, quyoshsevar, yengil tuproqlarda yaxshi o‘sadi uni sanoat miqyosida yetishtirish uchun optimal agrotexnik sharoitlarni ta’minlash juda muhimdir. Lavanda o’simligi urug’idan ko’paytiriladi. Urug’lar kech kuzda dalaga ekiladi. Bunda qishlash davrida rozetka holida o’taydilar. Agarda urug’lar bahorda ekilsa, bunda urug’larni maxsus joylarda va salqin yerda saqlanadi. Nam qumni qutilarga vaqti –vaqti bilan ularni mog’orlamasligi uchun namlab va

aralashtirib turiladi. Bahorda urug'lar aprelning boshlarida egat oraliqlarini 70 sm qilib ekiladi. Bir gektarga 4 – 4,5 kg xisobida urug' sarflanadi. Ekishdan so'ng dala maydoni yoki qalamchalar sug'oriladi. Urug'lar 10 – 12 kunda unib chiqadi, 2 – 3 bargcha chiqqandan so'ng qator oralariga traktor yordamida ishlov beriladi va kultivatsiya ishi olib boriladi. Bundan tashqari yer yumshatiladi va yagana qilinadi. Yagana qilishda bir tupda 2 – 3 tadan o'simlik qoldiriladi, ularning oralig'i 20 – 30 sm ni tashkil qiladi. Kuzda ekilgan o'simliklar may – iyun oylaridan gullaydi va bahorda ekilganlari esa iyul oyida gullaydi. Lavanda o'simligining ildiz tizimi yaxshi tarmoqlanganligi sababli ko'p sug'orishni talab etmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'. Pratov, Q. Jumayev. Yuksak o'simliklar sistematikasi. Toshkent 2003
2. Сидоров, А.А. – Технология получения эфирных масел, Санкт-Петербург, Питер, 2012.
3. International Lavender Association – "Lavender Oil Extraction Methods", online resource, accessed 2025.
4. Berdiyev E.T. Axmedov E.T. Tabiiy dorivor o'simliklar. Toshkent 2017 yil.
5. Saminov A., Ismoiljonova D., Rahmataliyeva M. Dorivor sut qushqo'nmas osimligining foydali xususiyatlari va undan oqilona foyalanish //Science and innovation. – 2022.